

Sevara G'ayratovna Raximova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor o'qituvchisi
imperatork2833@gmail.com
+998931072833

UDK 323(575.1):94

**O'ZBEKISTON SIYOSIY MADANIYATINING BA'ZI BIR TARIXIY
XUSUSIYATLARI**

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada davlat manfaatlarining ustuvorlik darajasi, uning jamiyat, shaxs, ijtimoiy guruhlar manfaatlari bilan qanchalik uyg'un holda kechishi, jamiyat keng qamrovli siyosiy axborot tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi, jamiyatning siyosiy tizimi yetarli darajada yuqori bo'lishi hamda uning taraqqiyoti uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib berishi, o'z navbatida, jamiyatda o'rgatilgan siyosiy madaniyatga bog'liq ekanligiga asoslangan, Shuningdek, 1917 yilda bo'lib o'tgan inqilob va o'sha davrda shakllangan o'zbeklar siyosiy madaniyatining ba'zi xususiyatlari haqida ham ijtimoiy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Siyosiy madaniyat, siyosiy ong, jamiyat rivoji, qadriyat, ijtimoiy makon, siyosiy munosabat, siyosiy jarayonlar, siyosiy hayot, taraqqiyot.

**SOME HISTORICAL CHARACTERISTICS OF THE POLITICAL CULTURE OF
UZBEKISTAN**

ANNOTATION: In this article, the level of priority of the state's interests, how harmonious it is with the interests of society, individuals, social groups, the society has the opportunity to use a comprehensive political information system, the political system of the society is sufficiently high and relevant for its development. It is based on the fact that the creation of conditions, in turn, depends on the political culture taught in society. Also, about the revolution that took place in 1917 and some features of the political culture of the Uzbeks formed at that time. social thinking is also carried out.

Keywords: Political culture, political consciousness, social development, value, social space, political attitude, political processes, political life, development.

**НЕКОТОРЫЕ ИСТОРИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА**

АННОТАЦИЯ: В данной статье достаточно высок уровень приоритетности интересов государства, насколько он гармоничен с интересами общества, личности, социальных групп, общество имеет возможность использовать комплексную политическую информационную систему, политическая система общества. и актуальны для его развития. Оно основано на том, что создание условий, в свою очередь, зависит от политической культуры, преподаваемой в обществе. Также о революции, произошедшей в 1917 году и некоторых особенностях сформировавшейся в то время политической культуры узбеков. социальное мышление также осуществляется.

Ключевые слова: Политическая культура, политическое сознание, социальное развитие, ценности, социальное пространство, политические установки, политические процессы, политическая жизнь, развитие.

Azaldan fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb, fuqarolarni siyosiy faolligini oshirishga bo'lgan harakat alohida ahamiyat kasb etadi. Xar bir tarixiy davrda bu o'ziga xos tarzda amalga oshirilganligi manbalarda e'tirof etiladi. Biz aynan siyosiy madaniyat kategoriyasi deb atalmasada bilvosita shunga yaqin fikrlar asosida yozib qoldirilgan Konfutsiy, Aristotel, Platon, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli asarlarini mutolaa qilishimiz fikrimizni dalilidir. Aynan mazkur tushuncha haqida dastlabki fikrlar Iogan Gotfreyd Gerderⁱ muloxazalari asosida fanga kiritilishi ko'p bora tilga olinsada, ammo Gabiel A.Almond va Sedney Vebraⁱⁱ "siyosiy madaniyat" kategoriyasini ilmiy hamda nazariy jihatdan o'rganish amaliyotini boshlab bergan.

Jumladan, siyosatshunoslik ilmida G.Almond va S.Verba birgalikda siyosiy madaniyatning birinchi mustaqil nazariyasi asoschilari sifatida tilga olinadi. Ular siyosiy madaniyatni siyosiy munosabatlar va jarayonlar asosida turgan siyosiy tizim subyektlarining individual pozitsiyalari va yo'nalishlari yig'indisi, deb ta'riflaganlarⁱⁱⁱ.

Bugun zamonaviy siyosatshunoslik uchun jamiyat hayotida siyosiy madaniyat hodisasini uning tipologiyasiga qarab o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Siyosiy tafakkur tarixidan ma'lumki, siyosiy madaniyatni turli asoslarga ko'ra tiplarga ajratib tahlillar berilgan.

Xususan, ta'kidlash joizki, siyosiy terminologiya tizimida *siyosiy madaniyat* tushunchasi o'tgan asrning 50-yillarning o'rtalarida amerikalik politologlar G.Almondning "Qiyosiy siyosiy tizimlar" (1956-y.) hamda S.Verba va G.Almond hammuallifligidagi "Fuqarolik madaniyati" (1963-y.) nomli asarlarda kiritilgan edi. Mazur manbalar siyosiy madaniyatning o'ta o'zgaruvchanligini qayd qilishar ekan, siyosiy tizimni anglash siyosiy madaniyatga tegishli bilim, his-tuyg'u va mulohazalardan boshlanishini qayd etganlar.

"Siyosiy madaniyat" terminining o'zi esa ancha keyinroq paydo bo'ldi. Uni ilmiy muomalaga XVIII-asrda nemis faylasufi va ma'rifatparvari I.Gerder olib kirgan degan qarash mavjud. Ya'ni, ilk marotaba nemis faylasufi I.Gerderning "Insoniyat tarixi falsafasi uchun g'oyalar" asarida qo'llanilganligi qayd etiladi^{iv}.

Zamonaviy davlatning qanday uslubda rivojlanishi aynan uning siyosiy madaniyatining ahvoli bilan chambarchas bog'liq bo'lib, siyosiy madaniyatning u yoki bu xolatda rivojlanganlik darajasiga qarab, jamiyat siyosiy tizimining qanchalik to'g'ri tashkil qilinganligi, qanday yuksalib borishi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Shu bilan birga siyosiy madaniyat davlat fuqarolarining davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga, siyosiy va huquqiy layoqatini ifoda etuvchi, siyosiy institutlarning shakllanishiga, faoliyat ko'rsatishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyat – shaxs ma'naviy kamolotining muhim asosi ekanligini barchamiz yaxshi anglab borishimiz mumkin. Yana bir tomoni siyosiy madaniyat jamiyatning madaniy tizimining tarkibiy qismi bo'lib, madaniyatning siyosat bilan birga o'zaro aloqadorligining chuqur ildizlarini namoyon qiladi. Madaniyat odamlarning tabiat ustidan hukmronligi uchun xizmat qilsa, siyosat odamlarning ijtimoiy munosabatlar va boshqa odamlar ustidan hukmronligini namoyon qiladi. Siyosiy madaniyat hokimiyatni amalga oshirish usullariga ta'sir qiladi, shu bilan bir qatorda, madaniyat taraqqiyoti ko'p jihatdan siyosatning katta

qismiga ta'sir qiladi. Masalan, jamiyatni isloh qilish sharoitlarida siyosat madaniyat barcha sohalarining amal qilishi va mazmuniga jiddiy ta'sir o'tkaza olish imkoniyatiga ega. Siyosiy madaniyatning asosiy mohiyati odamlarni siyosiy faoliyat hamda siyosiy tizimga jalb qilishdir^v.

Mahalliy olim, Professor N.Jo'rayev "Siyosiy madaniyat siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z xayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his etishadi"^{vi}, deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat mamlakatimiz aholisining siyosiy madaniyati yildan yilga rivojlanib, yuksalib borayotganligi quvonarli xol, biz buni 2023-yilda amalga oshirilgan siyosiy voqeuliklar asosida xam keltirib o'tishimiz mumkin. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalarni 65 foizga yangilanishishi aks etilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani ishlab chiqilishi xamda qabul qilinishi jarayonlari fikrimiz dalilidir.

Mazkur Konstitutsiyani matni 2 bosqichli o'rganishlar asosida tayyorlanganligi: birinchi bosqichda oltmish mingdan ziyod berilgan takliflarning xar to'rttasidan biri loyihadan joy olganligi, ikkinchi bosqichda 150 mingdan ortiq takliflar Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali loyixa bilan 5 million aholimiz tanishib chiqqanligi, shuningdek o'n mingta qo'shimcha va takliflar bildirilganligi xaqida rasmiy axborotlar berildi.^{vii} 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Konstitutsiyasi referendumiga 19722809 kishi yani 84,51 foiz aholi ro'yxatga olingan yoki kelgan, jami ovozlar 100 foiz 16667097 kishi deb xisoblanadi. Shundan 16593425 nafar aholining 90,61 foizi ya'ni 15040055 nafari xa, 9,39 foizi ya'ni 1633134 nafari yo'q deya ovoz berishgan. Mazkur umumxalq referendumida 99,56 foiz ya'ni 16593425 ovozlar qabul qilinib, 0,44 foiz ovozlar noma'lum yoki bekor qilinganligi aytib o'tiladi. "Konstitutsiya o'zimizniki" va "Befarq emasman" shiorlari asosida tashkil etilgan mazkur umumxalq referendumi tom ma'noda siyosiy madaniyatga befarq bo'lmagan o'zbek xalqini siyosiy ongi va siyosiy tafakkurini yuksalib borayotganligidan dalolat beradi.^{viii}

Siyosatshunoslik adabiyotlarida siyosiy madaniyatning muhim elementlari deb hisoblanuvchi siyosiy xabardorlik, siyosiy bilimlar, siyosiy tafakkur xamda siyosiy onglilik tushunchalari qayd etiladi. Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent Davron MUITOV "Hozirgi paytda yoshlar tarbiyasida mustaqil fikr va pozitsiyani shakllantirishga faqat siyosiy xabardorlik, siyosiy bilim, siyosiy tafakkur va siyosiy onglilik kabi siyosiy madaniyatning muhim elementlari kuchli impuls berishi mumkin.

Ular o'z navbatida xar bir fuqaroning fikrlash faoliyati bilan o'z-o'zini muvofiqlashtirib turadigan, o'z-o'zini himoya qilib, o'z-o'zini takomillashtirib, to'ldirib va hatto shakllantirib, mukammallashtirib borish imkoniyatini beruvchi siyosiy tarbiyaviy muhitni dolzarblashtiradi"^{ix} deydi. Bizningcha globallashtirish kuchayib borayotgan, shiddatli o'zgarayotgan hozirgi zamonning kuchli axborot bosimlaridan nafaqat yoshlarni balki butun aholini siyosiy madaniyatini xamda siyosiy tarbiyasini tarixdan olingan saboqlar asosida rivojlantirish zaruriyati juda xam ahamiyatli.

Siyosiy madaniyatni o'rganishda milliy xarakter tushunchasidan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Tarixiy madaniy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy amaliyot hamda tafakkurning

individual qiyofasi o‘z-o‘zidan mazkur tushuncha atrofidagi muammolarni oydinlashtirishga yordam beradi hamda har qanday xalqning siyosiy madaniyatini tushunish uchun qudratli zamin yaratdi. Har qanday ijtimoiy-siyosiy tizimda siyosiy madaniyatning o‘ziga xos modellari o‘zini namoyon qiladi. Bunday paytda siyosiy madaniyat madaniy maxsus shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi^x.

Siyosiy madaniyatning modellari bilan bir qatorda uning turlari ham mavjuddir: 1.Siyosiy madaniyatning "yopiq" turi — o‘zining siyosiy jihatdan biqirligi bilan xarakterlanadi. Siyosiy madaniyatning boshqa turlariga nisbatan murosasiz bo‘ladi, ularni mutlaqo qabul qila olmaydi. Faqat o‘zining tor milliy qobig‘ida qoladi. 2.Siyosiy madaniyatning ochiq" turi — siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qila oladi. Boy an‘analari bo‘lgani holda siyosiy voqealardagi o‘zgargan yangi realliklarni qabul qiladi. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini boyitib borish xususiyatiga ega. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy va siyosiy jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy madaniyatning ildizlari anchayin qadimiydir u o‘zida dunyoviy xamda diniy elementlarni mujassamlashtirsada ammo, «Oktyabr» inqilobi deb nomlanuvchi siyosiy voqeylikdan keyin bir qator yangiliklar, zamonaviy siyosiy rejim amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan boyitilgan.

Har bir tarixiy voqea qachon, qanday bo‘lib o‘tmasin albatta muqarrar ravishda ma'lum bir natija qoldiradi, vaqtlar o‘tishi bilan voqeylik esdan chiqarib yuborilsada yaxshi yoki yomon natija xamma sohalarda dastur sifatida foydalanilishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek bu oddiy ammo ancha chuqurroq asosga ega bo‘lgan ontologik komponentlar xaqida malum muloxazalarni yuritishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yamiz.

Rus davlatida bo‘lib o‘tgan 1917-yildagi inqilob hokimiyat va boshqaruv tizimini o'zgartirib yuboradi, xamda Rus davlatchiligining 300 yildan beri davom etib kelayotgan uzluksizligini tugatadi. Tom ma‘nodagi yangi davr deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydigan mazkur davrda Rus davlatida taqvim, imlo xamda poytaxtning o‘zgartirilishi amalga oshiriladi, bular esa yangi xukumat tomonidan juda hurmatga sazovor bo‘lgan fransuz inqilobiy xarakatlari dasturlaridan o‘zlashtirilganligi haqida ma‘lumot beradi Aleksey Kojemyakov o‘zining maqolasida^{xi}. 1917-yil 3-martda fevral inqilobi xaqida Toshkentga jo‘natilgan telegramma matbuotda chop etilganda jadidlardan Abdulxamid Cho‘lpon xam mazkur inqilob 1789-1793 yillardagi bo‘lib o‘tgan buyuk Franzuz inqilobiga o‘xshashligi xaqida fikr bildirgan.^{xii}

Yozuv Turkistonda xam bir necha marotaba o‘zgartiriladi. 1917-yildan eski o‘zbek yozuvi^{xiii}, 1929-yilda lotin yozuvi, 1940-yildan boshlab kirill yozuvlariga asoslangan alifbolarga o‘tilganligi, poytaxt xam Buxoro, Samarqand xamda Toshkent shaharlariga ko‘chirilishi aynan inqilobchilarning dasturlariga asoslanganligi bilan bog‘lanmoqda. Shuningdek, 1918-yil 31-yanvardan 1918-yil 14-fevral o‘tib ketilishi grigoriy taqvimining birinchi kuni deb qabul qilinishi (Grigoriy taqvimi qabul qilingandan buyon yig‘ilib qolgan 3 kun ham bir yo‘la qo‘shilib 13 kun oldinga suriladi) joriy etiladi. Grigoriy taqvimi Rossiyada shu jumladan Turkiston o‘lkasida xam 1918-yilda joriy etildi. Xalq Komissarlar kengashining qarori bilan amalga oshirilgan mazkur ish natijasida biz xozirgi kunda xam foydalanayotgan taqvimga moslastirilamiz^{xiv}.

1917-yil fevral voqealaridan so‘ng mart oyida Turkistonning ko‘pgina xududlarida xam nomoyishkorona chiqishlar, mitinglar bo‘lib o‘tadi. Bu xarakatlarga minglab, bir necha o‘n minglab aholi qatnashadi, ammo mazkur xarakatlardan Turkistonning aholisi siyosiy madaniyati kuchli bo‘lgan degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki namoyishni

tashabbuskorlari va faollari Markazdan ayni shu xarakatlarni tashkillashtirish uchun kelganlar, ammo mahalliy aholining siyosiy madaniyati yo'q edi deb xam bo'lmaydi, bil'aks mazkur xarakatlarni asosiy qismi maxalliy aholi tomonidan amalga oshirilgan, alalxusus metinglar ta'sirida sekin asta siyosiy tashkilotlar bo'y ko'rsatishni boshlaydi. Partiyalar tuzilishi ularni qonuniy mustahkamlanishi, qurultoylar o'tkazilib qonunlar qabul qilganligi, ushbu tashkilotlarning a'zolari, yig'ilishlarining bayonnomalari to'g'risidagi faktlar Toshkent Shahar Markaziy davlat arxivining 10-fondida saqlanib turipdi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, butun dunyo siyosiy madaniyat darajalarining xususiyatlari xamda siyosiy madaniyatning o'ziga xos modellari va turlarida qarab ma'lum guruh va turlarga ajratish maqullangan. Xususan Gabriel Almond va Sidney Verba "Fuqarolik madaniyati" asarida siyosiy ishtirok etish darajasi va turiga hamda odamlarning siyosatga munosabati xususiyatiga asoslangan siyosiy madaniyatning uchta sof: paroxial, mavzu, ishtirokchi turlarini belgilab berdilar.

Paroxial — fuqarolar markaziy xukumat siyosati va davlat olib borayotgan siyosiy faoliyatdan, qabul qilinayotgan qarorlardan bexabar, ularda siyosiy bilim va siyosatga qiziqish yo'qligi uchun an'anaviy siyosiy tuzilishda deb hisoblanadi.

Mavzu — markazlashgan avtoritar tuzilma bilan mos keluvchi mazkur turda fuqarolar markaziy hukumat siyosatdan xabardor va bo'ysinadilar, siyosiy norozilik xolatlari kam xolatda uchrab turishi va fuqarolar siyosatning "pastga oqim" tomonida bo'lishadi.

Ishtirokchi — demokratik siyosiy tuzilishga mos keladi, fuqarolar hukumatga faol ta'sir ko'rsatadi. Almond va Verba bu siyosiy madaniyat turlari har birining eng yaxshi elementlarini birlashtirgan fuqarolik madaniyatini yaratish uchun birlashishi mumkinligini yozgan^{xv}.

Shuningdek, to'plangan imperik manbalar xamda ilmiy – nazariy bilimlarga asoslanib siyosiy madaniyatni: "totalitar-avtoritar", "liberal-demokratik" va «sharqona siyosiy madaniyat» modellarini keltirib o'tish joiz. Xo'sh, mazkur modellardan 1917-yildan to 1991-yilga qadar O'zbekiston jamiyatida qaysi siyosiy madaniyat xususiyatlari rivojlangan edi? Mazkur savolga javob topishimizdan avval yo'qoridagi modellarni xususiyatlari xaqida fikr yuritmog'imiz darkor.

Siyosiy madaniyatning modellari bilan bir qatorda uning turlari ham mavjuddir:

1.Siyosiy madaniyatning "yopiq" turi — o'zining siyosiy jihatdan biqiqligi bilan xarakterlanadi. Siyosiy madaniyatning boshqa turlariga nisbatan murosasiz bo'ladi, ularni mutlaqo qabul qila olmaydi. Faqat o'zining tor milliy qobig'ida qoladi.

2.Siyosiy madaniyatning ochiq" turi — siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qila oladi. Boy an'analari bo'lgani holda siyosiy voqeliklardagi o'zgargan yangi realliklarni qabul qiladi. Doimiy ravishda o'z-o'zini boyitib borish xususiyatiga ega. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy va siyosiy jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi^{xvi}.

Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli, avvalambor, shunisi bilan xarakterli hisoblanadi:

birinchidan, unda shaxsning individual jihatlarini sun'iy ravishda buziladi;

ikkinchidan, jamiyatda siyosiy qadriyatlar va siyosiy ong markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantiriladi va shuning asosida davlat manfaatlari inson, ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ustun qo'yiladi;

uchinchidan, jamiyatni siyosiy axborot bilan ta'minlash ishi hokimiyat tomonidan belgilab berilgan, faqat bir yo'nalishda olib boriladi va davlat tomonidan monopoliyalashtiriladi, hamda faol ravishda siyosiy senzura amalga oshiriladi;

to'rtinchidan, siyosiy hayot bir xil qolipda kechadi, jamiyatning siyosiy madaniyati hech qanday muqobilsiz yuqoridan turib shakllantiradi;

beshinchidan, aholi aksariyat qismining siyosiy madaniyati nihoyatda past bo'ladi;

oltinchidan, siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli tashqi dunyoga nisbatan sun'iy ajratib qo'yilganligi va «siyosiy-madaniy makon» sifatida biqirligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy madaniyatning liberaldemokratik modeli – fuqarolar siyosiy huquq va erkinliklarini huquq asosida yuqori darajada ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi:

birinchidan, jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari aksilmarkazlashtirilgan holda shakllantiriladi. Unga ko'ra davlat manfaatlarining ustuvorlik darajasi, uning jamiyat, shaxs, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini bilan qanchalik hamohangligiga bog'liqdir;

ikkinchidan, jamiyat keng qamrovli siyosiy axborot tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, jamiyatning siyosiy tizimi yetarli darajada yuqori bo'ladi, uning taraqqiyoti uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib beriladi;

to'rtinchidan, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli tashqi siyosiy-madaniyat makoniga nisbatan o'zining "ochiqligi" bilan ajralib turadi. Ba'zi holatlarda (masalan, tashqi tahdid, yoki ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va boshqa salbiy holatlar ro'y beradi) liberal-demokratik siyosiy madaniyat modeli doirasida avtoritar model elementlari jonlanishi mumkin. Buni biz masalan, jamiyat hayotiga davlat aralashuvini kengayishida, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ma'lum darajada cheklanishi holatida ko'rishimiz mumkin.

Sharqona siyosiy madaniyat modeli – siyosiy madaniyatning sharqona modeli, jumladan, o'zbek xalqining o'ziga xos siyosiy madaniyati asoslari ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan nihoyatda boy madaniy va ma'naviy makonda shakllangan. «Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblari ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xo'ja Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganlar Xalqimizning o'ziga xos sharqona dunyoqarashi natijasida shakllangan siyosiy madaniyatning mohiyatiga to'xtalganda alohida ta'kidlash lozimki, buyuk madaniyat va ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning ajdodlari siyosatda sharqona axloq masalasiga alohida e'tibor berganlar. Siyosatning yuksak axloq asosiga qurilishi lozimligi to'g'risidagi mazkur g'oya inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi o'ziga xos tasavvurlar, qarashlarning shakllanishiga olib kelganki, biz ularni sharqona siyosiy madaniyatning o'ziga xos

mezonlari deb qabul qilishimiz lozim bo'ladi. Shu o'rinda "Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan"^{xvii}.

Mazkur xususiyatlarga berilgan ta'riflardan kelib chiqib biz O'zbekiston xududida siyosiy madaniyatning "totalitar-avtoritar" modeli rivojlantirilganligini qayd etamiz. Ammo o'zbek olimlarining 1917-1991 yillar oralig'ida siyosiy madaniyat xaqida yozilgan adabiyotlari xamda o'quv qo'llanmalari yo'q, aynan siyosiy madaniyat O'zbekistonda 1991-yildan keyin o'rganilishni, tadqiq etishni boshlagan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq yurt tinchligini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston dunyoda birinchi bo'lib Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli maydonga aylantirish, xalqaro terrorchilikka qarshi markazni tuzish va afg'on mojarosi doirasida qator tinchliksevar takliflar bilan chiqdi.

Ayni O'zbekistonda shuning uchun ham mustaqillik va yurt tinchligini asrash, yurt tinchligini saqlashda tajovuzkor kuchlar va g'oyalarga doimo qarshi turish ma'naviy konsepsiyasi vaqtida va to'g'ri tanlandi.

Siyosiy qadriyatlarning zamonaviy talqinida yuksak siyosiy xabardorlik qadriyati komil insonni tarkib toptirish, jamiyatning yuksak ma'naviy-axloqiy qiyofa kasb etishiga olib keluvchi islohotlarni taqozo qiladi. Siyosiy jarayonlar natijasi esa, siyosiy madaniyatni targ'ib qilishning ana shu mazmunidan kelib chiqadi^{xviii}.

Umuman olib qaraganda, siyosiy madaniyat bugungi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy hayot taraqqiyot hamda siyosiy hokimiyatga ta'sir imkoniyatlariga bevosita bog'liqligidan kelib chiqadi. Bunda, o'z navbatida, siyosiy faoliyatni rag'batlantiruvchi siyosiy bilimlarga urg'u berish lozim. Ayni paytda siyosiy madaniyat darajasi davlat va jamiyat tomonidan shaxsning siyosiy sohadagi xatti-harakatlar, imkoniyatlari va tashabbuskorligini amalda ifoda etib berishi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etish fuqarolardan siyosiy madaniyat tamoyillarini puxta o'zlashtirish va siyosiy faolligini oshirib borish chora-tadbirlariga yetarli etibor qaratishni talab qiladi.

Zero, bugungi jadal islohotlar davrida demokratik qadriyatlar taraqqiy etishi shart qilib qo'ygan siyosiy jarayonlarni kuzatish va shunga xos ravishda siyosiy irodalilik, siyosiy ong va madaniyatni mustahkam shakllantirish talabi bilan jamiyat ham ildamlashib, taraqqiy etib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Идеи к философии истории человечества = Ideen zur Philosophie der Geschichte der Menschheit / Пер. и примеч. А.В.Михайлова; Отв. ред. А.В.Гулыга; АН СССР. -М.: Наука, 1977. -704 с.

2. Gabriel A. Almond, Sidney Verba. The Civic culture. Political attitudes and democracy in five nations. Princeton N. Y., 1963.
3. Алмонд Г.А. Гражданская культура. Политические установки и демократии пяти наций. // Антология мировой политической мысли. В 5томах. Том II. Зарубежная политическая мысль. XX век. / Под ред. Г.Ю. Семигина. – М.: Мысль, 1997. стр. 595.
4. Абрамов Ю.И., Морозова О.С., Семенов А.В. Политическая культура избирателей Рязанской области. Рязань, 2013. стр. 5.
5. Muitov D.S. Siyosiy madaniyat. /O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zDJTU bosmaxonasi. –102 b. -B. 20.
6. N.Jo‘rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -T: “Ma‘naviyat” 2008. –464 b.
7. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o‘rganish” fakultativ kursi o‘quv dasturi. –T.: 2023.
8. *Elektron manba:* <https://www.gazeta.uz/ru/2023/05/01/referendum-final>.
9. D.Muitov. Siyosiy madaniyat : o‘quv qo‘llanma. -T: “Book Traid 2022” 2023. - 112 b.
10. Muitov D.S. Siyosiy madaniyat. /O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zDJTU bosmaxonasi. –102 b. -B. 50.
11. Алексей Кожемяков. «Особенности политической культуры России: история и современность».
12. O‘zbekiston tarixi H.Sodiqov, N.Jo‘rayev. O‘zR Prezident huzuridagi davlat va jamiyat akad., O‘zbekistonning yangi tarixi markazi. -T.: “Sharq”, 2011. -720 b.
13. *Elektron manba:* https://majmua.tdpu.uz/files_new/113343_ulot%20materiallari.docx.
14. *Elektron manba:* <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/turkiston-xalqlari-qo-llagan-taqvimlar?ysclid=lu34sz2sp 297470068>.
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_madaniyat.
16. Shojonov M.T. Siyosiy madaniyatning modellari va turlari. Zamonaviy ilm-fan va ta‘lim istiqbollari. 273-bet.
17. *Elektron manba:* file:///C:/Users/user/Downloads/Analyzes_related_to_the_formation_of_political_cul.pdf.

18. MUITOV D.S. Siyosiy madaniyat. /O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zDJTU bosmaxonasi.
– 102 b. -B. 22.